

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

5-son
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

TAHRIRIYAT

	4	Ta'lism sifatini oshirish – yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'llidir
--	---	--



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

A. Nasirov	6	Umumiy o'rta ta'limgi takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik va metodologik asoslari (dasturiy konsepsiya)
X. Ibraimov, F. Ibragimova	12	Gender o'z-o'zini anglash – gender tenglikni ta'minlashning ustuvor prinsipi sifatida
O. G'aniyev	15	Bo'lajak o'qituvchilar metametodik kompetensiyasini rivojlan-tirishning didaktik ta'minoti
M. Umnova	19	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatida bilishga qiziqishlarining rivojlanish tendensiylari
Sh. Jo'rayev	24	Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv pozitsiyasi falsafiy va pedagogik-psixologik muammo sifatida
J. Shukurllayev	28	Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuvning mazmuni
D. To'rayeva	31	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentli-ligini rivojlantirish (Integrativ yondashuv asosida)
G. Ibragimova	35	O'zbekistonda umumiy o'rta ta'limgi sifatini rivojlanishiga oid tarixiy ma'lumotlar
A. Suyunov	38	Integrativ yondashuv asosida tarix o'qituvchilarining o'zini o'zi kasbiy rivojlanish definitsiyasining psixologik-pedagogik aspektlari



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

N. Yuldasheva	42	Pedagogik jarayonda "o'zbek tilining sohada qo'llanilishi"ni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari
R. Eshimov, S. Israilov	46	Ummumta'limg maktablariga doir kompyuter imitatsion modellar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish metodikasi (7-sinf "fizika" o'quv predmeti misolida)
Q. Muxammadiyev	51	Texnologiya fanlarni o'qitishda zamonaviy ta'limg metodlaridan foydalanish
R. Ziyayev, M. Umarova	54	Organik kimyoda spirtlar mavzusi o'tilganda oksidlanish – qaytarilish reaksiyalarini o'rganish
L. Mambetova	58	Ona tili darslarida o'quvchilar nutqiyl kompetensiyalarini rivo-jlantirishning nazariy asoslanishi
O. Yusupov	61	Ta'limg axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib geometriya fanini o'qitish metodikasi



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

G. Buvorayeva	65	Ummumta'limg maktablarida o'quvchilarining tarbiyaviy kompe-tensiylarini uyg'unlashtirish texnologiyasi (Jismoniy tarbiya fani misolida)
B. Amirullayeva	68	Tabiiy fan o'qituvchilarining o'quv metodik tayyorgarligini rivo-jlantirishda konstruktiv yondashuv

Jurabek SHUKURLLAYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrasi o'qituvchisi

TALABALARНИ ИЛМИЙ ВА КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЮРЛАШДА АКМЕОЛОГИК ЙОНДАШУВНИНГ МАЗМУНИ

Annotation

Mazkur maqolada talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuv bo'yicha didaktik imkoniyatlari, talablari, mezonlari va bosqichlari yuzasidan ko'sratma va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Akme, magistr, talaba, mukammallik, mahsulorlik, professionallik, yuksalish, ismoniy tarbiya, natija, sifat.

В данной статье содержатся указания и предложения относительно дидактических возможностей, требований, критериев и этапов акмеологического подхода в подготовке студентов к научной и профессиональной деятельности.

Ключевые слова. Акме, магистр, студент, мастерство, продуктивность, профессионализм, продвижение, исламское образование, результат, качество.

This article contains instructions and suggestions regarding the didactic possibilities, requirements, criteria and stages of the acmeological approach in preparing students for scientific and professional activities.

Key words. Acme, master, student, excellence, productivity, professionalism, advancement, Islamic education, result, quality.

Dunyo miqyosida ta'larning ilmiy rivojlanish tendensiyalari negizida, ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatini tashkillashtirishni muvofiqlashtirish, har tomonlarma ilmiy va ijodiy potensialga ega mutaxassis tayyorlashga yo'naltirilgan mexanizmlarini ishlab chiqish vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Butun jahon bo'yicha oliy ta'lim muassasalari tahsil oluvchilarining bilim, ko'nikma, malaka egallashlarini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, uni insonparvarlashtirish, ta'larning uzvyligi va uzlusizligi, rivojlantiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi maqsadlarini ta'minlash, mutaxassislarni, shu jumladan, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarining kreativligi, ijodkorligini oshirishda ilmiy tadqiqot funksiyalarini takomillashtirish vazifalari qo'yilmoqda.

Mamlakatimizda nafaqat jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi balki, boshqa ta'lim yo'nalishlarida ham talabalar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqot (referat, mustaqil ish, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasi, tezislar, maqolalar, va o'quv reja dasturlar) ishlarni amalga oshirishda talabalar qator muammolarga duch kelmoqdalar. Buning asosiy sababi talabalar tomonidan bajariladigan ilmiy ishlarni amalga oshirish mexanizmini tushunmaganliklari bois qanday tartibda rasmiylashtirish borasida yetaricha bilimga ega emasliklaridadir. Shuningdek, talabalar tomonidan mustaqil bajariladigan referat, mustaqil ish, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik ishlari, avvalo, biron fan tarkibida alohida mavzu sifatida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, har qanday insondan o'zi bilman va anglab yetmagan bilim yoki tajribani so'rashni mantiqsizlik bilan tenglashtirish

mumkin. Shu bois mazkur jarayonni amalga oshirishda, talabalar bilimini takomillashirishda har bir fan mazmunidan kelib chiqib, referat, mustaqil ish, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik ishlari qay tartibda rasmiylashtirish va bajarish jarayonida nimalarga e'tibor berish lozimligini izohlash lozim.

Biz tomonimizdan yozilayotgan maqolamizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yonda-shuvning mazmuni asosiy tayanch tushunchalarini quyidagicha izohlash maqsadga muvofiqdir:

Ilm – arab tilida o'rganish, o'qish, hayotiy tajriba orttirish, bilim, ko'nikma hamda malakalar majmuidir.

Ilmiy faoliyat – obyektlar, hodisa (jarayonlar)ning xususiyatlari, o'ziga xosliklari va qonuniyatlarini aniqlash maqsadida borliqni o'rganish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanib, fundamental va amaliy tadqiqotlardan iboratdir.

Jismoniy madaniyat tizimida ilmiy tadqiqot ishlari nazariy hamda amaliy tadqiqotlar asosida amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, jismoniy madaniyat sohasidagi talabalar asosan jismoniy tarbiya sohasini nazariy jihatlarini ilmiy tadqiq etishga yo'naltirilgan tizim hisoblanadi. Chunki, jismoniy madaniyat sohasi gumanitar soha bo'lib, jismoniy tarbiya sohasida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganadi va bu jarayon mazmunini modernizatsiyalashda turli ta'lif texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish mehanizmlarini ishlab chiqadi. Jismoniy madaniyat tizimida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishda talabalar turli tadqiqotlarning metod, shakl va vositalaridan hamda tajribalardan foydalanish asnosida uning takomillashgan parametrlarini ishlab chiqadi. Darhaqiqat, boshqa fanlarda bo'lgani kabi jismoniy madaniyat ta'limi sohasida ham avval talabalarga kelgusi kasbiy faoliyatlarida yoshlarga o'rgatiladigan asosiy fanlarning ham nazariy, ham amaliy tomonidan bilimlar majmui berib boriladi. Shuningdek, ular ongida shakllangan ma'lum bir g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishlari uchun uning ilmiy tomonlari o'rgatiladi.

Talabalar tafakkuri ilmiy asosga qaratilgan, mustaqil fikrga ega, jarayonni mantiqiy prognozlash xususiyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tafakkurning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berishning yo'l yo'riqlari:

- muammoning yuzaga kelishi va fikriy vazifaning shakllanishi;
- vazifa javobini izlash va unga yechim topish;
- ushbu topilgan javobni subyektiv yangilikning ochilishi sifatida idrok etish;
- erishilgan javobning to'g'rilingini isbotlash, uni boshqa kishiga asoslab berish, tushintirish;
- jismoniy tarbiya va sport vositalaridan ijodiy va ijobiy foydalanishlar.

Mutaxassislarining ilmiy tafakkurini shakllantirish bilimni egallashga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi o'ziga xos omil sifatida e'tirof etilib, uning natijasida bo'lg'usi mutaxassislarini jismoniy tarbiya tizimida pedagogik holatlarni boshqalarga nisbatan chuqurroq anglab yetishi, o'rganiladigan jarayon dinamikasini farqlay olishi xususiyatlarning takomillashishini anglatadi. Shuning uchun ham talabalarning shaxs sifatida shakllanishida asosiy bosqich bo'lib xizmat qiladi. Jismoniy madaniyat ta'lifida tahsil oluvchi talabalarни ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishlari uchun ularda motivatsion-maqsadlarni tarkib topitish muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, bu holat talabalarda kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich tarkib topishida asosiy omil bo'lib, ulardagи tadqiqotchilik tajribasini shakllantirish yuzasidan qo'yilgan maqsadni tadqiqotchiligi orqa-

li jismoniy tarbiya sohasini anglash bilan uzviy bog'liq bo'lgan o'rganishning shaxsiy muhim maqsadi sifatida qabul qilishi va uni o'tashi kerak. Vazifa turli xil vositalar yordamida tashqi maqsadlari, talabani o'qitish jarayonini maksimal darajada faollashtirishi bilan belgilanadi. Ushbu holatning natijasida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishini shakllantirish, uning kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish rolini belgilash hamda anglash orqali ularning talaba shaxsiyati uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Akmeologik yondashuvning asosiy maqsadi – progressiv rivojlanishga hamda birinchi navbatda shaxsnинг professionalizmi va muayyan mehnat subyektlari faoliyatining taraqqiyotiga imkon beradigan talablar, sharoit va omillar tizimini namoyon etadi. Akmeogramma doimo individual bo'ladi, rasmiy ravishda u samarali faoliyat ko'rsatayotgan subyektning individual kesimini, uning imkoniyatlari va istiqbollarini, o'rmini qoplaydigan va aksi bo'lgan xususiyatlarini o'zida mujassam etadi.

Akmeologik izchilllik, ya'ni mukammallik cho'qqisiga intilish, bu – inson hayotining ajralmas xususiyati bo'lib, bu ibora orqali shaxsiy, kasbiy rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirishga moyillik anglatiladi. Bunday izchilllik insonning ijodiy potensialida va kasbiy mahoratida o'z ifodasini topadi. Akmeologik izchilllik inson hayot-mamotining ontologik attributidir, ya'ni insonning tug'ilganidan toki umrining oxirigacha bo'lgan individual rivojlanish yo'lini qamrab oladi. Akmeologiya — tabiiy, umumjamoa va insoniy qoidalar asosida kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi haqidagi ta'limot bo'lib, insonning yetuklik bosqichida rivojlanish qonunlari va mexanizmi haqida yanada yuksakroq darajalarni egallah fenomenologiyasini tadqiq etadi. Akmeologiya mahsuldarlik tushunchasini ochib beruvchi kasbiy faoliyat kategoriyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, samarador faoliyat, professionalizm va ijod rivojlanishidagi hamda texnologiyani ishlab chiqib, mashg'ulot faoliyatida yuksakklikka erishishning yo'naliш va usullarini izlash va ularning bu jarayon qonuniyatlariga tatbiq etish, professionalizmning ijodiy yutuqlari sari yo'naltirilgan samarador tizimlar darajalarini belgilash bilan shug'ullanadi. Akmeologiyaning eng muhim jihatni — yuksak ijodiy pog'onaga ko'tarilishidagi turli jihatlarini o'rganuvchi muhim zamonaviy tarmoq bo'lib, insonning hunari rivoji, ijobiyligi ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiliшини chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini rivojlanirish maqsadida mukammallik va kamolotga erishishi jihatlarini fanlar, ayniqsa, insonshunoslik bilan uyg'unlikda o'rganishdan iboratdir.

Shunday qilib, talabalarни ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuv talabalar tafakkuri ilmiy asosga qaratilgan, mustaqil fikrga ega, jarayonni manтиqiy prognozlash xususiyatiga ega bo'lishi va yuqori natijalarga erishishni hamda ilmiy va kasbiy salohiyatni yaxshilashni taqozo etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Jismoniy tarbiya va sport jurnali. 2018-yil.
2. Shukurlayev J.M. 7-14 yoshli mакtab o'quvchilari ichidan voleybol sport turiga tanlab olish metodikasini takomillashtirish. TDPU magistrlik dissertatsiyasi. 2020-yil.
3. Shukurlayev J.M. 7-14 yoshli mакtab o'quvchilarini voleybol sport turiga tanlab olishning metodik xususiyatlari. "Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio" 2-сон. 2019-yil. Nekis.sh. 153-156 b.
4. Shukurlayev J.M. O'quvchi yoshlarni voleybol sport turiga tanlab olishning metodik xususiyatlari. ACADEMIC RESEARCH in EDUCATIONAL SCIENCES. №.1. 2020 2-oktyabr.

Bosh muharrir:

Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas'ul kotib:

Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:

Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY'ATI:

Xilola UMAROVA, Risboy JO'RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV,
G'ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO'MINOVA,
Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Ravil IS'YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALIOVA, Sharibboy ERGASHEV,
Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV,
Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

JAMOATCHILIK KENGASHI:

Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abdughalim MAHMUDOV,
Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar "Xalq ta'lifi" ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagи 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

"TAFAKKUR NASHRIYOTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: ____-____-____-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi ____ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – To'xtamurodova Shohida Akmalxo'ja qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar <https://rustxt.ru/antiplagiat> sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© "Xalq ta'lifi" jurnalı, 2023.